

SIL KASALLIGI: DAVO REJIMLARI VA MUAMMOLARI

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs talabasi
Abdurahmonova Dilnoza*

ANNOTATSIYA; Ushbu maqolada sil kasalligining tibbiyotdagi dolzarb muammolaridan biri sifatida davo rejimlari va ularni amalga oshirishda uchraydigan muammolar yoritilgan. Silni davolashdagi asosiy strategiyalar, DOTS (Directly Observed Treatment Short-course) tizimi, multidorilarga chidamli sil (MDR-TB) va yangi davolash uslublari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, silni davolashda uchraydigan muammolar — bemorlarning davoga rioya qilmasligi, dori ta'sirining nojo'ya oqibatlari, dori vositalariga chidamli shtammlarning rivojlanishi kabi holatlar tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR ; Sil kasalligi, DOTS, davo rejimi, MDR-TB, dori chidamliligi, profilaktika

Sil kasalligi (tuberkulyoz) — *Mycobacterium tuberculosis* tomonidan chaqiriladigan, asosan o'pka to'qimasini zararlovchi infeksiyon kasalligidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha millionlab insonlar silga chalinadi, shulardan ko'pchiligi rivojlanayotgan davlatlar hisobiga to'g'ri keladi. Silga qarshi samarali kurash olib borilishi uchun davo rejimlarining to'g'ri tashkil etilishi va ularning bajarilishi muhim ahamiyatga ega.

Sil kasalligini davolashning asosiy prinsip va rejimlari. Silni davolash 2 bosqichda olib boriladi: Intensiv bosqich (2 oy): Bu bosqichda ko'proq dorilar qo'llaniladi va bemorlar qat'iy nazorat ostida bo'ladi.

Davomiy bosqich (4 oy): Bu bosqichda dori miqdori kamaytiriladi, ammo muntazam qabul talab etiladi. DOTS (To'g'ridan-to'g'ri nazorat ostida qisqa muddatli davo) — JSST tomonidan tavsiya etilgan eng samarali davo rejimlaridan biri bo'lib, bemorning har bir dori qabul qilishi tibbiyot xodimi yoki vakolatli shaxs tomonidan nazorat qilinadi.

DOTS quyidagi komponentlardan iborat: Siyosiy majburiyat Laboratoriya diagnostikasi Standartlashtirilgan davo rejimi Davolash ustidan nazorat Monitoring va baholash Multidorilarga chidamli sil (MDR-TB) va keng doiradagi chidamli sil (XDR-TB) MDR-TB – bu izoniazid va rifampitsinga chidamli sil turidir. XDR-TB esa bu ikki asosiy dori vositasiga va qo'shimcha ravishda fluroxinolonlar va kamida bitta in'eksion dori vositasiga chidamli sil shaklidir. Bunday holatlarda odatdagi davo rejimlari samara bermaydi, natijada: Dori vositalari soni ortadi Davolash muddati 18-24 oygacha cho'ziladi Nojo'ya ta'sirlar ko'payadi Harajatlar oshadi

Silga qarshi dorilar va nojo'ya ta'sirlar. Silga qarshi asosiy dorilar: Isoniazid (H) Rifampitsin (R) Pirazinamid (Z) Etambutol (E) Streptomitsin (S) Nojo'ya ta'sirlar: gepatotoksiklik, allergik reaksiyalar, nevrologik buzilishlar, eshitish qobiliyatining pasayishi. Ushbu ta'sirlar ko'pincha bemorlarning davoga bo'lgan sadoqatini pasaytiradi.

Davo rejimlarida uchraydigan muammolar Bemorning davoga rioya qilmasligi: Davo uzilsa, bakteriyalar dori vositalariga chidamli bo'lib qoladi. Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari: Bemorlar dori ichishni to'xtatib qo'yadi. Diagnostika muammolari: Ayniqsa qishloq joylarda zamonaviy laboratoriyalar yetishmasligi. Tibbiy ko'rsatmalarni to'liq bajarmaslik: Bu holat kasallikning qaytishiga olib keladi. Ijtimoiy va iqtisodiy muammolar: Ishsizlik, yashash sharoitining yomonligi, ovqatlanishning yetarli emasligi. Bedaquilin va Delamanid – yangi avlod dori vositalari bo'lib, chidamli silga qarshi ishlatilmoqda. Qisqa muddatli rejimlar: JSST tomonidan yangi 9-12 oylik davo kurslari tavsiya etilmoqda.

Genetik testlar yordamida bakteriyalar chidamliligini tez aniqlash imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa

Sil kasalligini davolashda yagona yondashuv yetarli emas. Har bir bemorga individual yondashuv, to'g'ri tanlangan davo rejimi va muntazam nazorat muhim ahamiyatga ega. DOTS tizimi silga qarshi kurashda asosiy strategiya bo'lib qolmoqda. Biroq, multidorilarga chidamli sil, dori vositalarining nojo'ya ta'siri va ijtimoiy muammolar mavjud bo'lgan sharoitda, yangilangan strategiyalar va chuqur ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Global Tuberculosis Report, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi. Silga qarshi kurash dasturi, 2023.
3. Fauci A., et al. Harrison's Principles of Internal Medicine. 20th Edition.
4. CDC – Tuberculosis Treatment Guidelines, 2024.